

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tadbir



Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasida 9-dekabr – xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan tadbir o'tkazildi.

Tadbir davomida O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni to'g'risida ma'lumot berilib, mazkur qonun 6 bob, 34 ta moddadan iboratligi, u – korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida–gi huquqiy munosabatlarni to'liq qonuniy tartibga solishga, davlat organlari, tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga– qarshi chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga, fuqarolarning huquqiy ongi va hu–quqiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga– toqat qilmaslik muhitini yaratishga xizmat qilishi haqida ma'lumotlar berib o'tildi.



Mazkur qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda islohotlarning yangi davri boshlangani va bunda korrupsiyaga– qarshi kurashish davlatning ustuvor vazifasi ekanidan dalolat ekani alohida ta'kidlandi.



Xuddi shunday tadbir Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi institutida ham bo'lib o'tdi.

Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi

matbuot xizmati